XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - iyun VI-59-89-12-171-K/22 Gurlan tuman hokimligi

Tumandagi ayrim qabristonlarning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 20-apreldagi 229-son bayonnomasi va tuman hokimiligining ayrim qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24- moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 20-apreldagi 229-son bayonnomasi va tuman hokimining qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan qabristonlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (S.Axmedov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (I.Raximov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror “Gurlan hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Bazarbayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Radjapovich X. S.**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-59-89-12-171-K/22-son qaroriga
1-ilova

Gurlan tumanidagi qabristonlar

RO‘YXATI

№	Geografik obyekt turi	Joylashgan manzili	Geografik obyekt nomi
1.	qabriston	Moyli mahallasi	Xo‘ja bobo
2.	qabriston	Paxtachi mahallasi	Amir Dovud bobo
3.	qabriston	Olg‘a mahallasi	Shayx Xudoydod
4.	qabriston	Esabiy mahallasi	Shayx Avliyo bobo
5.	qabriston	Qangli mahallasi	Najmiddin Kubro
6.	qabriston	Oqqum mahallasi	Obil Qoil bobo
7.	qabriston	Olchin mahallasi	Muhammad Bahouddin Valad
8.	qabriston	Ziyokor mahallasi	Faxriddin ar-Roziy
9.	qabriston	Nukus mahallasi	Shayx Abdulavval Nishopuriy
10.	qabriston	Nurli yo‘l mahallasi	Munchoqtepa
11.	qabriston	Nurli yo‘l mahallasi	Bobo Guras